



CULTURAL-COMMUNICATIVE ENVIRONMENT AND THE VALUE FOUNDATIONS OF YOUTH IDENTITY

Obidjon Gulamov

PhD, Acting Associate Professor

Tashkent University of Architecture and Construction

obidgulomov03@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: identity, youth, values, cultural-communicative environment, national identity, cultural heritage, globalization, communication, spirituality, socialization.

Received: 20.07.26

Accepted: 21.07.26

Published: 22.07.26

Abstract: This article analyzes the mechanisms of youth identity formation and its value foundations in the context of the modern cultural-communicative environment from a socio-philosophical perspective. It substantiates that, under the conditions of globalization, digitalization, and the rapid development of information and communication technologies, young people's worldview, cultural orientation, and identity models are acquiring new meanings. The study reveals the role of the cultural-communicative space in shaping youth identity, the interaction between national and universal values, and the significance of cultural heritage in strengthening identity. Furthermore, the article highlights the prospects and priority directions for the development of youth identity within contemporary communicative processes.

MADANIY-KOMMUNIKATIV MUHIT VA YOSHLAR IDENTIKLIGINING QADRIYATLI ASOSLARI

Obidjon G'ulamov

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti dotsent vazifa bajaruvchi, PhD

obidgulomov03@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: identiklik, yoshlar, qadriyatlar, madaniy-kommunikativ muhit, milliy identiklik, madaniy meros,

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy madaniy-kommunikativ muhit sharoitida yoshlar identikligining shakllanish

globalashuv, kommunikatsiya, ma'naviyat, ijtimoiylashuv.

mexanizmlari hamda uning qadriyatli asoslari ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Globalashuv, raqamlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida yoshlarning dunyoqarashi, madaniy orientatsiyasi va identiklik modellari yangi mazmun kasb etayotgani asoslab beriladi. Tadqiqotda madaniy-kommunikativ makonning yoshlar identikligini shakllantirishdagi o'rni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'zaro ta'siri hamda madaniy merosning identiklikni mustahkamlashdagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, zamonaviy kommunikativ jarayonlar sharoitida yoshlar identikligini rivojlantirishning istiqbollari va ustuvor yo'nalishlari yoritilgan.

ЦЕННОСТНЫЕ ОСНОВЫ ИДЕНТИЧНОСТИ МОЛОДЁЖИ В КУЛЬТУРНО-КОММУНИКАТИВНОЙ СРЕДЕ

Обиджон Гуламов

PhD, исполняющий обязанности доцента

Ташкентский архитектурно-строительный университет

obidgulomov03@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: идентичность, молодёжь, ценности, культурно-коммуникативная среда, национальная идентичность, культурное наследие, глобализация, коммуникация, духовность, социализация.

Аннотация: В данной статье с социально-философской точки зрения анализируются механизмы формирования идентичности молодёжи и её ценностные основы в условиях современной культурно-коммуникативной среды. Обосновывается, что в результате процессов глобализации, цифровизации и стремительного развития информационно-коммуникационных технологий мировоззрение молодёжи, её культурные ориентации и модели идентичности приобретают новое содержание. В исследовании раскрывается роль культурно-коммуникативного пространства в формировании молодёжной идентичности, взаимодействие национальных и общечеловеческих ценностей, а также значение культурного наследия в укреплении идентичности. Кроме того, освещаются перспективы и приоритетные направления развития идентичности молодёжи в условиях современных коммуникативных процессов.

Kirish. XXI asrning globallashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanayotgan sharoitida madaniy-kommunikativ muhit inson hayotining barcha jabhalariga, ayniqsa, yoshlar dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va identiklik shakllanish jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi murakkab ijtimoiy-madaniy makonga aylanib bormoqda. Zamonaviy jamiyatda identiklik masalasi nafaqat shaxsning o'zini anglash jarayoni, balki uning milliy, madaniy, fuqarolik va global makondagi o'rnini belgilovchi fundamental ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois "Madaniy-kommunikativ muhit va yoshlar identikligining qadriyatli asoslari" mavzusini tadqiq etish bugungi ijtimoiy-falsafiy fanlar oldida turgan dolzarb nazariy va amaliy muammolardan biri hisoblanadi.

Ababiyotlar sharxi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda identiklik fenomeni turli metodologik yondashuvlar asosida talqin qilinadi. Amerikalik sotsiolog Manuel Kastels "identiklik – bu ma'no va tajriba manbai bo'lib, u ijtimoiy subyektlarning o'zini anglash jarayonida shakllanadi" deb ta'kidlaydi [1]. Ushbu yondashuvning e'tiborga molik jihati shundaki, muallif identiklikni biologik yoki etnik mansublik bilan emas, balki kommunikativ munosabatlar va ijtimoiy tajriba mahsuli sifatida izohlaydi. Ayniqsa, uning "tarmoq jamiyati" konsepsiyasi raqamli kommunikatsiyalar sharoitida yoshlar identikligining transformatsiyalanish mexanizmlarini tushuntirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Kastelsning fikricha, "axborot oqimlari hukmron bo'lgan makonda identiklik ijtimoiy qarshilik va o'zini namoyon etish vositasiga aylanadi" [1, p.6]. Mazkur nazariy qarash zamonaviy yoshlar ongida milliy va global identiklikning parallel shakllanish jarayonlarini anglash imkonini beradi.

Identiklik masalasining nazariy asoslarini chuqurlashtirgan olimlardan biri Entoni Smit bo'lib, u "milliy identiklik tarixiy xotira, umumiy afsonalar, madaniy ramzlar va qadriyatlar tizimi asosida shakllanadi" deb hisoblaydi [2]. Muallifning ushbu qarashi yoshlar identikligini shakllantirishda madaniy meros va tarixiy ongning o'rnini ochib beradi. Ayniqsa, uning etnosimvolizm nazariyasi milliy identiklikning barqarorligini ta'minlovchi ma'naviy omillarni tahlil qilishda muhim metodologik ahamiyatga ega. Bugungi O'zbekiston sharoitida yoshlarning milliy o'zligini anglash jarayonlarida tarixiy xotira, madaniy meros va milliy qadriyatlarning rolini izohlashda ushbu yondashuv dolzarb nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Nemis faylasufi Yurgen Habermas esa identiklikning kommunikativ jihatlariga alohida e'tibor qaratib, "ijtimoiy integratsiya va identiklikning shakllanishi kommunikativ harakatlar tizimi orqali amalga oshadi" deb ta'kidlaydi [3]. Uning kommunikativ ratsionallik nazariyasi madaniy-kommunikativ muhitning yoshlar dunyoqarashi va qadriyatlar tizimiga ta'sirini tahlil qilishda muhim metodologik imkoniyat yaratadi. Habermas nazariyasining ustun jihati shundaki,

unda identiklik ijtimoiy muloqot va o'zaro anglashuv mahsuli sifatida talqin qilinadi. Bu esa zamonaviy yoshlarning virtual kommunikativ makondagi ishtiroki, ijtimoiy tarmoqlar orqali qadriyatlar almashinuvi va yangi identiklik modellari shakllanishini falsafiy jihatdan izohlash imkonini beradi.

O'zbekistonlik olimlardan Sh. Madaeva identiklik masalasini milliy-ma'naviy taraqqiyot bilan bog'liq holda tahlil qilib, "identiklik insonning o'z tarixiy ildizlari, madaniy merosi va ma'naviy qadriyatlariga nisbatan ongli munosabatidir" deb qayd etadi [4, 15-b.]. Muallifning "Identiklik antropologiyasi" asarida globallashuv sharoitida milliy identiklikni saqlash va rivojlantirishning ijtimoiy mexanizmlari chuqur tahlil qilingan. Ayniqsa, milliy, diniy va madaniy identiklikning o'zaro aloqadorligi haqidagi ilmiy xulosalar yoshlar identikligining qadriyatli asoslarini tadqiq etishda muhim nazariy manba hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda yoshlar ma'naviyati, media madaniyat va ijtimoiy faollik masalalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ham mazkur mavzuning ilmiy ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Xususan, O. G'ulamov "ijtimoiy-madaniy omillar yoshlar ma'naviy kamolotining muhim determinantlari hisoblanadi" deb ta'kidlaydi va yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda madaniyat, san'at hamda ijtimoiy institutlarning rolini asoslaydi [5, 14–16-b.]. E. Ablazov esa media madaniyatning yoshlar identikligiga ta'sirini o'rganib, zamonaviy axborot makonida media savodxonlik va tanqidiy tafakkur identiklikning barqarorligini ta'minlovchi omillardan biri ekanligini qayd etadi [6].

Shuningdek, H. Abduraxmonov yoshlar dunyoqarashida innovatsion tafakkurning shakllanishi ijtimoiy-madaniy omillar bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlab, "yoshlarning ijtimoiy faolligi va innovatsion tafakkuri jamiyatning ma'naviy taraqqiyot ko'rsatkichlaridan biridir" degan xulosaga keladi [7, 14–18-b.]. Mazkur ilmiy qarashlar yoshlar identikligining qadriyatli asoslari statik hodisa emas, balki ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar ta'sirida muntazam rivojlanib boruvchi dinamik tizim ekanligini ko'rsatadi.

Muhokama va natijalar. Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar, yoshlar siyosati, milliy qadriyatlarni asrash va umuminsoniy tamoyillar bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan strategik vazifalar yoshlar identikligini mustahkamlashning yangi imkoniyatlarini yaratmoqda. Shu ma'noda madaniy-kommunikativ muhitning transformatsiyasi, raqamli madaniyatning kengayishi, global axborot oqimlari va kommunikativ tarmoqlarning rivojlanishi sharoitida yoshlar identikligining qadriyatli asoslarini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo'lib, barqaror taraqqiyot, ma'naviy xavfsizlik va milliy o'zlikni anglashning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotda sistemali yondashuv asosida madaniy-kommunikativ muhit yoshlar identikligining shakllanishiga ta'sir etuvchi o'zaro bog'liq institutlar, qadriyatlar, kommunikativ mexanizmlar va ijtimoiy munosabatlar tizimi sifatida talqin qilindi. Ushbu yondashuv yoshlar identikligining tarkibiy elementlari hamda ularning o'zaro funksional aloqalarini aniqlash imkonini yaratdi. Tarixiy-falsafiy metod yordamida identiklik haqidagi nazariy qarashlarning evolyutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning tarixiy shakllanish jarayonlari hamda ularning zamonaviy jamiyatdagi o'rni tahlil qilindi.

Aksiologik yondashuv tadqiqotning muhim metodologik yo'nalishlaridan biri bo'lib, yoshlar identikligining qadriyatli asoslarini ochib berish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'zaro munosabatini aniqlash hamda ma'naviy omillarning identiklik shakllanishidagi rolini baholash imkonini berdi. Shu bilan birga, kommunikativ yondashuv asosida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli madaniyatning yoshlar dunyoqarashi hamda identiklik modellariga ta'siri o'rganildi. Antropologik yondashuv esa yoshlarni madaniy jarayonlarning faol subyekti sifatida talqin qilish, ularning ijtimoiylashuvi, o'zini anglash jarayonlari va madaniy tajriba asosida identiklikni shakllantirish mexanizmlarini tahlil etishga xizmat qildi.

Tadqiqot davomida qiyosiy tahlil, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, umumlashtirish hamda interpretatsiya metodlaridan keng foydalanildi. Mazkur metodlarning uyg'un qo'llanilishi madaniy-kommunikativ muhit va yoshlar identikligi o'rtasidagi dialektik bog'liqlikni, globallashtirish va raqamlashtirish sharoitida qadriyatlar transformatsiyasining xususiyatlarini hamda yoshlar identikligini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini ilmiy asosda ochib berish imkonini yaratdi. Natijada tadqiqot metodologiyasi yoshlar identikligini zamonaviy madaniy-kommunikativ makonning mahsuli va ayni paytda uning faol subyekti sifatida yaxlit ijtimoiy-falsafiy tahlil qilishga xizmat qildi.

Zamonaviy madaniy-kommunikativ muhit sharoitida yoshlar identikligi shakllanishining asosiy tendensiyalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, identiklik bugungi kunda faqat an'anaviy ijtimoiy institutlar – oila, mahalla, ta'lim tizimi va madaniy meros ta'sirida emas, balki global axborot makoni, raqamli kommunikatsiyalar, ijtimoiy tarmoqlar hamda transmilliy madaniy oqimlar ta'sirida ham shakllanmoqda. Yoshlar identikligi ko'p qatlamli va dinamik xarakter kasb etib, unda milliy, fuqarolik, madaniy, diniy va global identiklik elementlari o'zaro integratsiyalashgan holda namoyon bo'lmoqda. Mazkur jarayon yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, madaniy-kommunikativ muhitning kengayishi yoshlarning o'zini anglash jarayonlarini jadallashtirayotgan bo'lsa-da, ayrim hollarda identiklikning

fragmentatsiyalashuvi va qadriyatlar tizimida ziddiyatli holatlarning yuzaga kelishiga ham sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, raqamli madaniyatning jadal rivojlanishi natijasida yoshlar global madaniy namunalar bilan bevosita muloqotga kirishib, yangi identifikatsion modellarni o'zlashtirmoqda. Bu holat bir tomondan innovatsion tafakkur, ochiqlik va kommunikativ faollikni kuchaytirayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan milliy madaniy xotira va an'anaviy qadriyatlarga bo'lgan munosabatning transformatsiyalashuviga olib kelmoqda. Yoshlar identikligining barqaror shakllanishida milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va madaniy meros muhim integrativ omil sifatida namoyon bo'layotgani aniqlandi. Milliy identiklik shaxsning ijtimoiy o'zini anglashida tayanch mezon vazifasini bajarib, uning ma'naviy barqarorligi va fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlaydi. Bu jihat milliy identiklik konsepsiyasining nazariy-metodologik tahlillarida ham alohida ta'kidlangan bo'lib, milliy qadriyatlar jamiyatning madaniy yaxlitligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida baholanadi.

Tadqiqot natijalari yoshlar identikligini shakllantirishda madaniy komponentlarning alohida o'rin tutishini ko'rsatdi. Madaniy komponentlar shaxsning ijtimoiylashuvi, qadriyatlarni o'zlashtirishi va jamiyat bilan o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi muhim mexanizm hisoblanadi. Yoshlarning ijtimoiy identikligini ta'minlashda madaniy omillar, jumladan, san'at, adabiyot, tarixiy meros, milliy urf-odatlar va zamonaviy kommunikativ vositalar muhim rol o'ynashi aniqlandi. Bu jihatlar yoshlar ijtimoiy identikligi va madaniy komponentlar o'rtasidagi dialektik bog'liqlikni ochib beruvchi tadqiqotlarda ham o'z ifodasini topgan.

Shuningdek, tahlillar yoshlar ijtimoiy faolligi va identikligi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Ijtimoiy faollikning ortishi yoshlarning jamiyat hayotidagi ishtirokini kengaytirib, ularda fuqarolik mas'uliyati, vatanparvarlik va ijtimoiy birdamlik kabi qadriyatlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Globallashuv sharoitida yoshlar ijtimoiy faolligini rivojlantirish identiklikning barqaror shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan omillardan biri ekanligi qayd etildi.

Olingan natijalar madaniy-kommunikativ muhit va yoshlar identikligi o'rtasidagi munosabatlar murakkab, ko'p darajali hamda o'zaro ta'sir xarakteriga ega ekanligini ko'rsatdi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi, madaniy merosning izchil uzatilishi, kommunikativ madaniyatning rivojlanishi hamda raqamli makonda ma'naviy immunitetning shakllanishi yoshlar identikligini mustahkamlovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'ldi. Shu bilan birga, axborot oqimlarining intensivlashuvi va virtual kommunikatsiyalarning kengayishi yoshlarning identiklik tanloviga yangi ta'sir mexanizmlarini olib kirayotgani aniqlandi. Natijada zamonaviy madaniy-kommunikativ muhit sharoitida yoshlar identikligini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida milliy qadriyatlarni targ'ib etish, madaniy merosni zamonaviy

kommunikatsiyalar vositasida ommalashtirish, media va axborot madaniyatini yuksaltirish hamda yoshlarning ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash zarurligi asoslandi.

Madaniy-kommunikativ muhit va yoshlar identikligining qadriyatli asoslarini nazariy jihatdan tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, identiklik zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurda shaxsning o'zini ma'lum bir ijtimoiy, madaniy va ma'naviy makonga mansub deb anglashi, o'zligini anglash jarayonida shakllanuvchi murakkab ijtimoiy-madaniy konstruktsiya sifatida talqin etiladi. Globallashuv, raqamli kommunikatsiyalar va axborot oqimlarining keskin jadallashuvi natijasida identiklikning mazmuni va shakllanish mexanizmlari sezilarli darajada transformatsiyalanib, an'anaviy identifikatsiya omillari bilan bir qatorda virtual makon, transmilliy madaniyat va global kommunikatsiya vositalari ham uning muhim determinantlariga aylanmoqda. Shu jihatdan yoshlar identikligi nafaqat biologik yoki demografik kategoriya, balki jamiyatning ma'naviy-madaniy rivojlanishini ifodalovchi murakkab ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy identiklik nazariyasining asoschilaridan biri bo'lgan Anri Tajfel identiklikni individning muayyan ijtimoiy guruhga mansublik hissi orqali shakllanuvchi ijtimoiy ong shakli sifatida izohlaydi. Uning fikricha, "shaxs o'zini muayyan guruh a'zosi sifatida anglash orqali ijtimoiy mavqe va qadriyatlar tizimini o'zlashtiradi". Mazkur yondashuv yoshlar identikligining shakllanishida ijtimoiy muhit va kommunikativ aloqalarning hal qiluvchi ahamiyatga egaligini ko'rsatadi. Jon Tyorner esa identiklikning shakllanishini ijtimoiy kategoriyalashuv jarayoni bilan bog'lab, shaxsning o'zini muayyan jamoa va qadriyatlar tizimi bilan identifikatsiya qilishi uning ijtimoiy xulq-atvorini belgilashini asoslaydi.

Madaniyat fenomeni identiklikning mazmuniy negizi sifatida namoyon bo'lib, insonning tarixiy tajribasi, qadriyatlari, urf-odatlar va ma'naviy merosini o'zida mujassamlashtiradi. E. Kassirer madaniyatni "insonning ramziy olami" sifatida baholab, aynan madaniy belgilar va ramzlar orqali shaxs o'zligini anglashini ta'kidlaydi. Shu ma'noda madaniy-kommunikativ muhit identiklikni shakllantiruvchi ramzlar, ma'nolar va kommunikativ kodlar tizimi sifatida faoliyat yuritadi. Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda ushbu muhitning ta'sir doirasi yanada kengayib, yoshlarning qadriyatlar tizimi va ijtimoiy orientatsiyalariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Milliy identiklik nazariyalarida esa madaniy meros va tarixiy xotira alohida ahamiyat kasb etadi. Entoni Smit milliy identiklikni etnik xotira, umumiy tarix, madaniyat va ramzlar birligi asosida shakllanuvchi fenomen sifatida talqin qilib, milliy qadriyatlarning jamiyat barqarorligini ta'minlashdagi rolini asoslaydi. Benedikt Anderson esa millatni "tasavvur qilingan hamjamiyat" sifatida izohlab, kommunikativ vositalar va madaniy makon milliy identiklikni shakllantiruvchi asosiy omillardan biri ekanligini ko'rsatadi. Ushbu nazariy qarashlar yoshlar identikligini

shakllantirishda milliy madaniyat va kommunikativ muhitning o'zaro uzviy bog'liqligini tushunishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston sharoitida yoshlar identikligining qadriyatli asoslari milliy madaniyat, tarixiy meros, ma'naviy qadriyatlar va fuqarolik mas'uliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Milliy identiklik konsepsiyasining nazariy-metodologik jihatlari tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlarda milliy qadriyatlar jamiyatning ma'naviy yaxlitligini ta'minlovchi hamda yosh avlodning o'zligini anglashga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Shu bilan birga, yoshlar ijtimoiy identikligini ta'minlashda madaniy komponentlarning o'рни haqidagi tadqiqotlarda madaniy qadriyatlar, san'at, tarixiy xotira va kommunikativ vositalar identiklikning barqaror shakllanishiga xizmat qiluvchi asosiy mexanizmlar sifatida tavsiflangan.

Nazariy tahlillar natijasida aniqlanishicha, madaniy-kommunikativ muhit yoshlar identikligini shakllantiruvchi eng muhim ijtimoiy-falsafiy omillardan biri bo'lib, unda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi, madaniy merosning uzviy davomiyligi hamda kommunikativ jarayonlarning mazmuni hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ayniqsa, raqamli madaniyat va global kommunikatsiyalar sharoitida yoshlar identikligini rivojlantirish masalasi milliy o'zlikni saqlash, ma'naviy xavfsizlikni mustahkamlash va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan strategik ahamiyatga ega ijtimoiy-falsafiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois madaniy-kommunikativ muhitning qadriyatli asoslarini chuqur o'rganish yoshlar identikligini mustahkamlashning nazariy va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqishda muhim ilmiy-metodologik ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy madaniy-kommunikativ muhit yoshlar identikligining shakllanishi va rivojlanishida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Globallashtirish, raqamlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal taraqqiyoti sharoitida yoshlarning ijtimoiylashuvi, dunyoqarashi va qadriyatlar tizimi yangi mazmun kasb etib, identiklikning ko'p qatlamli va dinamik modelini vujudga keltirmoqda. Ushbu jarayonda milliy madaniyat, tarixiy xotira, ma'naviy meros va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi uyg'unlik yoshlar identikligining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Nazariy tahlillar identiklik fenomenining murakkab ijtimoiy-madaniy tabiatga ega ekanligini, uning shakllanishi shaxsning ijtimoiy tajribasi, kommunikativ munosabatlari va qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatdi. Yoshlar identikligi nafaqat individual o'zlikni anglash jarayoni, balki jamiyatning ma'naviy barqarorligi, fuqarolik birdamligi va madaniy taraqqiyotini belgilovchi muhim ijtimoiy ko'rsatkich sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu jihatdan madaniy-kommunikativ muhit identiklikni shakllantiruvchi va takomillashtiruvchi

muhim ijtimoiy institutlar, kommunikativ amaliyotlar hamda madaniy qadriyatlar tizimining yaxlit majmui sifatida tavsiflanadi.

Tadqiqot davomida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning yoshlar identikligini shakllantirishdagi oʻrni alohida ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Milliy qadriyatlar yoshlarning tarixiy xotira, madaniy meros va milliy oʻzlik bilan bogʻliqligini mustahkamlasa, umuminsoniy qadriyatlar ularning global madaniy makondagi faol ishtiroki, tolerantlik, bagʻrikenglik va ochiq dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli milliylik va umuminsoniylikning uygʻun rivojlanishi yoshlar identikligining barqarorligini taʼminlovchi muhim metodologik tamoyil sifatida namoyon boʻladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari raqamli kommunikatsiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar identikligiga taʼsiri tobora ortib borayotganligini koʻrsatdi. Mazkur jarayon yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish bilan birga, ularning maʼnaviy va madaniy orientatsiyalariga ham sezilarli taʼsir koʻrsatmoqda. Shu bois media madaniyatni rivojlantirish, axborot savodxonligini oshirish, tanqidiy tafakkurni shakllantirish va raqamli makonda milliy qadriyatlarni targʻib etish yoshlar identikligini mustahkamlashning ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi.

Madaniy-kommunikativ muhit va yoshlar identikligining qadriyatli asoslari oʻrtasidagi dialektik bogʻliqlik zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan biridir. Yangi Oʻzbekiston sharoitida yoshlar identikligini milliy va umuminsoniy qadriyatlar uygʻunligi asosida rivojlantirish, ularning maʼnaviy-axloqiy kamolotini taʼminlash hamda fuqarolik masʼuliyatini mustahkamlash jamiyatning barqaror taraqqiyoti va maʼnaviy xavfsizligini taʼminlashning muhim omili boʻlib xizmat qiladi. Shu maʼnoda madaniy-kommunikativ muhitning tarbiyaviy, maʼnaviy va integrativ imkoniyatlaridan samarali foydalanish yoshlar identikligini rivojlantirishning strategik yoʻnalishlaridan biri sifatida eʼtirof etilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Abduraxmonov, X. I. (2022). Zamonaviy yoshlar dunyoqarashida innovatsion tafakkurni shakllantirishning ijtimoiy omillari. Fan.
2. Ablazov, E. E. (2025). Yoshlar mediamadaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy muammolari (PhD dissertation abstract). Andijon.
3. Anderson, B. (2006). Imagined communities: Reflections on the origin and spread of nationalism (Rev. ed.). Verso.
4. Bauman, Z. (2000). Liquid modernity. Polity Press.
5. Beck, U. (2000). What is globalization? Polity Press.
6. Bell, D. (1973). The coming of post-industrial society. Basic Books.

7. Cassirer, E. (1944). *An essay on man: An introduction to a philosophy of human culture*. Yale University Press.
8. Castells, M. (2010). *The power of identity* (2nd ed.). Blackwell Publishers.
9. Erikson, E. H. (1968). *Identity: Youth and crisis*. W. W. Norton & Company.
10. Giddens, A. (1991). *Modernity and self-identity: Self and society in the late modern age*. Stanford University Press.
11. G‘ulamov, O. G‘. (2025). *Ijtimoiy-madaniy omillarning yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishdagi o‘rni* (PhD dissertation). Namangan.
12. Habermas, J. (1984). *The theory of communicative action* (Vol. 1). Beacon Press.
13. Huntington, S. P. (1996). *The clash of civilizations and the remaking of world order*. Simon & Schuster.
14. Ismoilov, B. R. (2021). *Yoshlarning ijtimoiy faolligi va uni amalga oshirish shakllari*. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 1(10), 840–847.
15. Karimov, I. A. (2008). *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. Ma’naviyat.
16. Madaeva, Sh. O. (2015). *Identiklik antropologiyasi*. Tafakkur.
17. Mirziyoyev, Sh. M. (2017). *Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz*. O‘zbekiston.
18. Mirziyoyev, Sh. M. (2021). *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. O‘zbekiston.
19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022, January 28). *2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida* (PF–60-son Farmon).
20. Ravshanova, M. M. (2022). *Yaponiya va O‘zbekiston xalqlari milliy identikligining falsafiy-komparativ tahlili* (PhD dissertation abstract). Toshkent.
21. Smith, A. D. (1991). *National identity*. University of Nevada Press.
22. Tajfel, H. (1981). *Human groups and social categories: Studies in social psychology*. Cambridge University Press.
23. Toffler, A. (1980). *The third wave*. Bantam Books.